

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI YOSHIDAGI  
TARBIYALANUVCHILARDA VATANPARVARLIK KO'NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISHDA BUYUK AJDODLARIMIZNING MA'NAVIY-  
MA'RIFIY MEROSLARDAN FOYDALANISH**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) 2-bosqich  
magistranti **Ergasheva Nigora**  
Tel: +998996692389*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbida vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otish hamda vatan tuyg'usini to'g'ri shakllantirish maqsadida tashlik etilgan mashg'ulot jarayoni va tahlili haqida yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, vatan, vatanparvarlik, milliylik, urf-odatlar, an'analar, insonparvarlik, do'stlik, yaratuvchanlik, pedagogik texnologiyalar.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО НАСЛЕДИЯ  
НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ В ФОРМИРОВАНИИ  
ПАТРИОТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ВОСПИТАННИКОВ ВОЗРАСТА  
МТТ**

**Аннотация:** В данной статье описаны ход и анализ проводимых занятий с целью воспитания дошкольников в духе патриотизма, пробуждения в их уме и сердце любви к Родине и правильного формирования чувства Родины.

**Ключевые слова:** Дошкольная организация, Родина, патриотизм, национальность, традиции, человечество, дружба, творчество, педагогические технологии.

**THE USE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL HERITAGE OF OUR  
GREAT ANCESTORS IN THE FORMATION OF PATRIOTIC SKILLS IN  
EDUCATORS OF MTT AGE**

**Annotation:** This article describes the process and analysis of the lessons taught in order to educate preschoolers in the spirit of patriotism, to awaken in their minds and hearts love for the motherland and the correct formation of a sense of homeland.

**Keywords:** Preschool organization, homeland, patriotism, nationality, customs, traditions, humanity, friendship, creativity, pedagogical technologies.

Vatanparvarlik hissini bolalar ongi va qalbida chuqur joy egallashi, uni yanada keng tushunishi, unga sadoqat tushunchasini shakllantirishda buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy meroslardan keng foydalanishimiz lozim. Bu borada madaniy meroslarimiz haqida ma'lumotlar berib borishimiz, uzoq tarixiy voqiyliklar, buyuk bobokalonlarimiz va ular yaratgan, bizgacha yetib kelgan boy, go'zal tarixga ega bo'lgan meroslarimiz haqida ma'lumotlar berib, tanishtirib, adib-u allomalarimizning ijodidan namunalar keltirib ta'lim-tarbiya ishlarini keng targ'ib etish barobarida bugungi kunda Vatanni, vatanparvarlikni, uni sevish, qadrlash kabilarni tarannum etib kelayotgan vatandoshlarimizni ijodiy namunalari, qo'lyozmalaridan ham foydalanishimiz kerak. Shu o'rinda prizentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining **“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”** asarida keltirgan so'zlarini havola etmasdan imkonimiz yo'q.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelimiz ham albatta bo'ladi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalanib kelinayotgan xalq og'zaki ijodidan “Alpomish” dostonidan ma'lumki har bir xalqning o'z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo'ladi. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish “Alpomish” dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, ajodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Bu mumtoz asarda tarix to'fonlaridan, hayot-momot sinovlaridan omon chiqib, o'zligini saqlagan, el-yurtimizning bag'rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Shu bois “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi.

Oq kirovka, oltin sovut kiyaman,  
Bor kuchimni bilagimga jiyaman,  
Olmos olsam, qirmizi qon quyaman,  
G'animlarning tanasini uyaman,  
Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman.  
Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,  
Dushman ko'rsam, kesib bag'rin tuzlayman,  
Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman.

“Alpomish” dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlanadi. Dostonda vatanparvarlik yo'lida mard bo'lish va dushmanga qarshi kurashish kerak, degan g'oya yaqqol ko'rinib turadi.

Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, yani, xalq manaviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'maviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Vatanparvarlikni bolalalar ongiga singdirar ekanmiz avvalambor, ularni axloqiy tarbiyasi haqida bosh qotirmog‘imiz va albatta pedagogik va psixologik hamkorlik jarayonlarini, oila, mahalla, maktab va bosqichma-bosqich keyingi ta‘lim-tarbiya maskanlari bilan hamkorlik olib borishimizni nazarda tutib ish ko‘rilmog‘i joyiz. Jumladan, vatanparvarlikni targ‘ib qiluvchi, mardlik, matomat, kurashuvchanlik, jasorat, mehr, sadoqat, jonkuyarlik kabi hislatlarni shakllantiish maqsadida bolalarda harbiy kuch nima ekanligi haqida boshlang‘ich tushunchalarini berib borishimiz, bolajonlar bilan turli sayohat va ekskursiyalarni, turli uchrshuvlarni tashkillashtirib mashg‘ulot jarayonlarida vatanparvarlik burchaglarida kengroq mavzuda foydalanishimiz lozim.

Axloqiy tarbiya bolalar hayotining asosiy qismini egallaydi. Shuning uchun, bu borada pedagogik asoslangan tushunchalarni buyuk ajdodlarimiz meroslari bilan bir qatorda qo‘llab kelinmoqda. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma‘naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o‘sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag‘batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina tarbiyalanuvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida uchta asosiy shakllanish darajasi mavjud:

1. Axloqiy onglilik;
2. Axloqiy qadriyatlar;
3. Axloqiy his-tuyg‘ular

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma‘lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi.

Axloq - kishining ichki olami, e‘tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa. Odob - shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o‘rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning “poydevori” deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a‘zosining xulqi, odobiga alohida e‘tibor bilan qaraladi. Muqaddas Qur‘oni Karimda va payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o‘z ifodasini topgan. Quyidagi hadislarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

“Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar”, “Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun

yuborilganman”, “Mo‘min kishida quyidagi ikki hislat bo‘lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik”.

Albatta, ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqta ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini boyitadigan eng muhim qarashlarni bizgacha yetib kelgan adabiyotlardan olamiz.

Husayn Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari shaxsiy, oilaviy va fuqarolik axloq asoslarini o‘z ichiga olgan. U 40 bobdan iborat. Muallif asarda adolat, sabr, yoqimlilik, hayo, odob, ishonch, va’daga vofo qilish masalalari haqida so‘z yuritadi.

Ahmad Yugnakiyning “Hibbat-ul-haqqoyiq” asari ta’limiy-axloqiy yo‘nalishda yozilgan bo‘lib, bilimlilik, adolat, sahovat kabi hislatlar ulug‘lanadi, yetuk insonni tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi.

Amir Temur “Axloqiy Husniya” - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod qilishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan. Amir Temur singari jahon ma’naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi.

Amir Temurning vasiyatlaridan xalqiga cheksiz sodiqligini, millatini ulug‘laganini, ozodlik uchun kurashuvchan, axloqiy madaniyati yuksakligini ko‘rish mumkin: “Millatning dardiga darmon bo‘ling. Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsinlarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”.

A.Navoiy ijodida ham ahloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan. “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun Yoqimlirog‘idir” - deydi mutaffakkir A.Navoiy.

Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanashida eng muhim bosqichidir. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo‘ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan xolda ish tutadigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir.

### **Vatanparvarlikni tarbiyalash.**

Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his-tuyg‘ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo buladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatanparvarlik faqat o‘z urug‘doshlariga, ona yeriga, urf-odatlariga bog‘liq his bo‘lgan bo‘lsa, sinflar paydo bo‘lishi bilan vatanparvarlik g‘oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko‘proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Davrlar o‘tishi bilan bu tuyg‘u buyuk qudratga aylandi.

### **Vatanga muhabbatni tarbiyalash.**

Vatanga muhabbat - eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg‘unlashib ketgan. Vatanga



muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbat hissini, ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

### Xulosa

Shunday ekan kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida balki oilada, ota-onalar, bobo va buvijonlar nazoratida, ularning buyuk tariximiz, bugunimiz hamda ertangi kunimiz orzulariga yug'rilgan hikoya, ko'y-qo'shiq, matal-u, ertaklar mutolaasi bilan ulg'aytirmog'imiz har birimizning eng oliy vazifamizdir. Bu borada olib borilayotgan har qanday tashabbusning natijasini tahlil va o'rganishlar ortidan rivojlantirib borishimiz to'g'ri va to'liq yo'lda ekanligimizni ko'rsatib bermoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni vatanparvarlik ko'nikmalarida tarbiyalash, o'sib kelayotgan kelajagimiz ustunlarini mustahkam iroda va yengilmas kuch egasi etib shakllantirishda oila, mahalla, MTT va maktab hamkorligini yanada mustahkamlovchi chora-tadbirlarni tashkillashtirish, uni amalga tadbiiq etish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nafaqat ta'lim jarayonini turli ko'ngil ochar tadbirlar hamda vatan himoyachilari va shu kabi ko'plab kasb egalari bilan uchrashuvlar, turli madaniy sayohatlarni amalga oshirish bilan ham rivojlantirib borishimiz mumkin bo'ladi.

Shunday ekan bolajinlarni faqatgina ota-ona yoki MTT tarbiyachi pedagoglari emas butun kasb egalari masul deb qarajak natijadorlik bir muncha o'sishini ko'zatishimiz mumkim.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va ta'lim tashkilotlari hamkorligini yanada mustahkamlashni taqzo etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni.
2. Nargiza KAYUMOVA **MAKTABGACHA PEDAGOGIKA** o'quv qo'llanma **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMLI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI** 5110801- Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim y o'nalishi talabalari uchun - Toshkent-2013.- 68-78 b.
3. Мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнини мавзувий режалаштириш (катта гуруҳ) Дастур тузувчилари: Л.Евстафева,

Ш.Набиханова, С.Пак, Д.С.Усмонова, М.Р.Ашрабходжаева, Х.У.Ризаева, Л.Нуритдинова, Ф.Каримова, Г.Б.Мусаева, Г.М.Нурмухаммедова, М.Х.Мухамадалиева, Ф.А.Гайфулина. Тошкент.: 2018 йил

4. БОЛАМ БАХТЛИ БЎЛСИН, ДЕСАНГИЗ...(ТАРБИЯ КИТОБИ) ЎҒИЛ-ҚИЗИНГИЗ ТАРБИЯСИДА ДАВЛАТ СИЗГА МАДАДКОР. Т.: "МАЎНАВИЯТ" 2014. - 1-боб. - Биринчи суҳбат. - 12-63 бет.
5. Abdulla AVLONIY **Turkuy guluston yoxud axloq:** Ibratli hikoyalar/Abdulla Avloniy. – Т.: O‘zbekisyon milliy ensiklopediyasi, 2004. -96 b.

**Elektron adabiyotlar**

1. [info@uzhurriyat.uz](mailto:info@uzhurriyat.uz).

